

Barotova Xurshida Jalolovna

BuxDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning ayol qavmiga mansub nafosat sohibalariga bo'lgan hurmat-e'tibori, qarindosh-urug'lariga nisbatan qilgan karam va saxovati hamda shu kabi odamoxun, nekbin sifatlarga jo bo'lgan temuriy shahzoda shaxsiyatidagi ta'rif-u tavsif xususida bir qancha ma'lumotlar bayon qilinadi. "Boburnoma" sahifalarida Mirzo Boburning ayollarga hurmat ehtiromi aks etgan jummalari tahlilga tortib izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *Go'zallik, saxovat, mo'jiza, nafosat, ehson, mo'mina, oliyjanob, oila, muruvvat, ehtirom, ulug'vorlik, Gulbadanbegim, hurmat, siymo.*

Go'zallik va nafosat, mehr-u muhabbat, vafo va nazokat ramzi bo'lgan, o'zining mehribonligi, qalb saxovati bilan har qaysi oilani oila qiladigan, unga fayz-u tarovat beradigan, farzandlarimiz yuragida o'z ona yurtiga sevgi va sadoqat tuyg'usini singdiradigan ayollarimizni Yaratganning tengsiz mo'jizasi, deb ulug'laymiz. Ularning betakror fazilatlarini har qancha gapirsak, har qancha e'zozlasak shuncha oz. Uzoq yillik o'tmish tariximizga ,xususan, e'tiqodimiz manbayi bo'lgan poklik va ezgulikni targ'ib qiluvchi muqaddas Islom dinimizda ham insonning ma'naviy darajasi uning ayoliga bo'lgan munosabati bilan belgilanishi, bizning dinimiz ayolni ardoqlash bobida ibrat olsa arzirlik qadriyatlarga boy ekanligini e'tirof etib o'tmaslikning imkoni yo'qdir. Islom dinining arkoni, muqaddas Qur'oni Karimning o'ttiz besh sura va bir yuz ikki oyatida ayol so'zining ishlatilishi, suralardan biri aynan "Niso" ya'ni "Ayollar" deb nomlanishi ko'p narsalardan dalolat beradi. Jumladan, Alloh taolo Qur'oni karimda bunday marhamat qiladi:

"Ey Payg'ambar! Qachonki, Sizning oldingizga mo'mina ayollar kelib, Allohga biror narsani sherik qilmaslikka, o'g'rilik qilmaslikka, zino

qilmaslikka, o'z bolalarini o'ldirmaslikka, qo'l va oyoqlari orasida to'qib oladigan bo'htonni qilmaslikka hamda biror yaxshi ishda Sizga itoatsizlik qilmaslikka huzuringizda qasamyod etsalar, Siz ularning qasamyodlarini qabul qiling va ular uchun Allohdan mag'firat so'rang! Albatta, Alloh (o'z bandalariga nisbatan) kechirimli va rahmlidir"(Mumtahanna su'rasi 12-oyat).¹ Mazkur oyati karimadan ma'lum bo'lishicha, ayol Islomning muayyan aqidalariga ergashmoqqa yo'naltirilgan. Ayol ruhan va aqlan bu aqidalarga amal qilishi, kuzata va anglay olishi uchun o'z-o'zini tarbiyalab, ta'lim olishi Islomning asosiy jihatidir. Yoki, Qur'oni Karim sarchashmasi hisoblanmish, muqaddas hadisi sharifda ham ayolga yuksak ehtirom, uning sha'ni, erkinligi, qadr-qimmatini har narsadan ustunligi, ayollarning tabiatan Olloh Taollo tomonidan ojiza qilib yaratilganligi, uning haqini hamma vaqt ado etish kabi masalalar yetakchi o'ringa qo'yilgan. Jumladan, Abdulloh ibn Umar rivoyat qilgan hadisda: "Bir kishi Rasululloh s.a.v ning huzuriga kelib, ey Allohning elchisi katta gunoh qilib qo'ydim men uchun tavba bormi? Payg'ambarimiz s.a.v onang bormi? dedilar. Yo'q, dedi. Payg'ambarimiz xolang bormi? dedilar, ha, dedi. Payg'ambarimiz s.a.v. unda unga yaxshilik qil,– dedilar".² Mana, Islomda ayolning qadri! Ayolning qadri qanchalar ulug'! Ibodatlar namoz, ro'za, zakot, haj gunohlarga kafforat. Ona – ayolga yaxshilik qilish ham ibodat sanaladi va gunohlarni kechirilishiga sabab bo'ladi chunki, ayol erkakka Allohning omonati etib berilgandir! Ayollarga nisbatan hurmat-izzat ko'rsatish kabi yuksak insoniy tuyg'ular qon-qoniga singib ketgan o'zbek xalqimiz, azal-azaldan Ona siymosini, Ayol zotini Yaratganning ulug' ne'mati, tengsiz mo'jizasi, deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi. Ushbu fikrimizning tasdig'i o'laroq yurtimizda ham ayollarning, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, qobilyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish masalasi bugungi kunda mamlakatda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev

¹ Abdulaziz Mansur tarjimasi. Qur'oni Karim. (O'zbekcha tafsir) . – Toshkent: "Tafsiri Hilol" matbaa uyi , 2016-yil. – 483 bet, – 302-bet.

² Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-jome' as-sahih. 1-jild. – Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 1997-yil, – 354 bet.– 103-106-betlardan olindi.

Miromonovich: "Ayolni e'zozlash, ayolga ehtirom ko'rsatish xalqimizga xos oliyjanob qadriyat hisoblanadi. Biz barchamiz qanday kasb, qanday lavozimda ishlamaylik, qalbimiz, yuragimizdagi jamiki ezgu fazilatlar uchun ayollarimizdan umrbod qarzdormiz"³, – deya ko'p bora ta'kidlab o'tganlar.

"Ayolga bo'lgan hurmat-e'tibor — bu avvalo, oilaga, jamiyat kelajagiga bo'lgan hurmat-e'tibor ifodasidir",⁴– degan bosh g'oya asosida yurtimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini kafolatli himoya qilish, oilalar barqarorligini ta'minlash, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda to'laqonli ishtirok etishiga erishish, bir so'z bilan aytganda, munis va mo'tabar opa-singillarimizni hayotdan rozi qilishga qaratilgan tarixiy islohotlar amalga oshirilayotganiga har birimiz guvohmiz.

Sharq allomalaridan biri jamiyatning madaniy darajasi uning ayoliga bo'lgan munosabati va g'amxo'rliqi bilan belgilanishini ta'kidlab, bizning tariximiz ayolni ardoqlash bobida ibrat olsa arzirlik qadriyatlarga boy ekanligini e'tirof etib o'tgandi. Ayni haqiqatni te'ran anglagan Mirzo Bobur ham pok qalblar egasi bo'lmish ayollarga hamisha yuksak ehtiromda bo'lgan. Gulbadanbegim otasi Boburmirdodagi bu yuksak fazilatlarni o'z xotirotlariga yozadi: "Onam Mohimbegim Kobuldan Hindistonga keldilar. Bu haqir, Gulbadan ham ular bilan birga edi... Onam ikki kuruh joyda yaqin qolib edilar. Otam hazratlari ot kelturguncha ham sabrlari chidamay, piyoda yo'lga tushdilar va Mohim oyimlarning yuklari oldida uchrashdilar. Onam pastga tushmoqchi bo'ldilar, podshoh otam qo'ymadilar va onamning jilovlarida uygacha piyoda keldilar".⁵ Podshoh bo'lishiga qaramay Mirzo Bobur piyoda yo'lga chiqib, ayoli kelayotgan otga jilovbardorlik qilishi haqiqiy tahsinga loyiqdir. Mirzo Bobur nafaqat ayoli Mohimbegimga balki, qarindosh-urug'lariga, egallagan mamlakatidagi barcha ma'suma qalblarga hamisha hurmat-ehtirom ko'rsatdi. Tabiatan ochiqko'ngil,

³ Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 56 bet, – 41-bet.

⁴ Xalq so'zi gazetasi. 2022-yil 7-mart soni №10 3-4-betlar. (Yurtboshimizning xotin-qizlarga bayram tabrigi nutqidani).

⁵ Gulbadanbegim. Хумоюннома. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. – 117 бет. – 19- бет.

saxovatpesha Bobur qarindoshlariga silai rahm qildi. Hamisha ularning holidan xabardor bo'ldi. "Boburnoma" sahifalarini varaqlar ekanmiz, uning naqadar oliyjanob, tanti inson ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Hindistonda saltanat qurgandan keyin Kobulni o'zining ishonchli beklari ixtiyoriga topshirib, Hind yurtida bir qancha obodonchilik ishlariga bosh-qosh bo'ladi. Asarda 1528-1529-yil voqealarni yozar ekan, Kobulda yuzaga kelgan bosh-boshdoqchiliklar haqida o'ylaydi. Bir necha noiblarning hokimlik talashishi natijasida yuzaga kelgan ixtilofdan qattiq xavotirga tushadi. Sbab, opasi Xonzodabegim, haramidagi ayollari, qarindosh-urug'lari Kobulda qolishgan edi. Ularning tinchligini o'ylagan shoh ularni tinchlik hukm surayotgan Hind diyoriga chorlaydi. "...bu vajdin egachimni va haramlarni Hindustong'a tiladim"⁶, – deya Bobur so'zida davom etadi. Oila, ahli haramini yaxshi kutib olgan podshoh, yana shu mazmundagi maktublardan Sulton Abu Said mirzoning qizlari, katta ammalariga yo'llab ularni ham Hindiston yurtiga taklif qiladi. Uzoq yo'ldan kelayotgan mehmonlarni biror bir xos navkarlariga ishonmay, o'zi kemada borib kutib oladi. Bu haqda "Vaqoe"da "Shanba kuni safar oyining uchida uluq amma begimlardim uch begim: Gavharshodbegim, Badiul – Jamolbegim, Oqbegim, kichik begimlardan: Xonzodabegim Sulton Ma'sud Mirzoning qizi, yana Sulton Baxtbegimning qizi, yana yanga chechamningkim, Zaynab Sultonbegim bo'lg'ay, nabirasi kelib, Tutadin o'tub, mahallot yoqasida daryo qirg'og'iga tushub erdilar, borib namozi digar bila namozi shomning orasiga ko'rdum, Andin kema bilano'q olib keldim"⁷, – deya kelasi kun Kobuldan kelgan ammalariga ham shu taxlitda iltifot qilib o'zi ularning istiqbollari chiqadi. "Shanba kuni safar oyining yigirma sekkizida Faxr Jahonbegim va Xadicha Sultonbegim – amma begimlar keldilar. Kema birla borib, Skandaroboddin borib yuqorroq olib mulozamat qildim".⁸ Xuddi shu voqeaning tavsilotini Gulbadanbegim "Humoyunnoma"da quyidagicha tavsiflaydi: " Sulton Abu Said Mirzoning qizlaridan olti begim: Gavharshodbegim, Faxri Jahonbegim, Xadicha Begim, Sultonimbegim, Badi ul-Jamolbegim, Oqbegim, Sulton Baxt,

⁶ Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 623 bet. (Keyingi o'rinlarda "ko'rsatilgan kitob" jumlasini keltirib o'tiladi).

⁷ Ko'rsatilgan kitob – 599-bet.

⁸ Ko'rsatilgan kitob – 575-bet.

podshohning tog'asi Sulton Mahmudxonning kichik qizi Zaynab Sultonxonim, podshoh hazratlarining kichik tog'asi Olachaxonning qizi Muhib Sultonxonim keldilar. Sirasini aytganda, hamma begimlar va xonimlar to'qson bir kishi edi. Ularning barchasiga o'zlari istagancha yer-mulk va in'omlar tayin qildilar".⁹ Tabiatan odamoxun va tanti podshoh Bobur qarindosh ma'sumalarga nafaqat in'om-ehsonlar qildi balki, har hafta ularning holidan xabar olishni o'ziga davlat ishlari darajasidagi ishlar qatoriga qo'ydi. Gulbadanbegimning guvohlik berishicha: "Agrada o'tkazgan to'rt yil davomida har juma kuni Bobur hazratlari ammalarini yo'qlab borardi. Bir kuni havo nihoyatda issiq edi. Hazrati onam ayttilar: "Havo nihoyatda issiq, agar bir juma bormay qo'ya qolsangiz ne bo'lg'ay? Begimlar bundan ranjimasalar kerak!" Podshoh Bobur onamga dedilar: "Mohim, bu so'zlarni gapirishing ajablanarli. Otasidan-akasidan ayrilgan hazrati Abu Said mirzoning qizlaridan men ko'ngil so'ramasam, qanday bo'larkin?"¹⁰ Ularning holidan xabar olishni o'ziga burch deb bilgan Bobur ammalari uchun Xoja Qosim degan eng mashhur me'morga ular uchun chiroyli ko'shk va bog' qurishini ham tayinlab qo'ydi. Bobur chinakam saxovatpesha, odamoxun podshoh sifatida qadrlandi. Zero, so'z mulkning sultoni – Mir Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda: "Oltin-u kumushlar-u turliq bezaklarni boylik deb hisoblamag`il, chinakam boylik oliyjanobliq saxovat ganjidir . Saxovat – insoniyat bog`ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkning mavj urib turgan dengizidir, balki u to`lqinli dengizning bebaho gavharidir ".¹¹ Mirzo Bobur ham butun umri davomida saxovatni kanda qilmadi. Qarindosh –urug', navkar-mulozimlar, hatto g'animlari orasida ham eng birinchilardan bo'lib, ularga saxovat qo'lini cho'zadi. Qo'shinidagi oddiy navkarlarini ham o'zidagi saxovatdan bebahra qilmaydi. Xuddi shu nekbin va odamoxun sifatlari bilan Mirzo Bobur bugungi kun avlodlariga ibrat maktabi bo'la oladi.

⁹ Gulbadanbegim. Хумоюннома. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. – 117 бет. – 16- бет.

¹⁰ Gulbadanbegim. Хумоюннома. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. – 117 бет. – 16- бет.

¹¹ Navoiy A. Хамса. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 493 бет. – 35-бет.

1. Abdulaziz Mansur tarjimasi. Qur'oni Karim. (O'zbekcha tafsir) . – Toshkent: "Tafsiri Hilol" matbaa uyi , 2016-yil. – 483 bet.
2. Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 699 b.
3. Гулбаданбегим. Хумоюннома. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. – 117 бет
4. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-jome' as-sahih. 1-jild. – Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 1997-yil, – 354 bet.
5. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 56 bet.
6. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 493 bet.
7. Xalq so'zi gazetasi. 2022-yil 7-mart soni №10 3-4-betlar. (Yurtboshimizning xotin-qizlarga bayram tabrigi nutqidan).